

# *Oʻljas Sulaymonov*

## **Oʻljas Umarovich Sulaymonov**

(qozoqcha: *Олжас Омарұлы*

*Сүлейменов*; 1936.18.5, Olmaota) —

qozoq shoiri, jamoat arbobi, diplomat.

Qozoq universiteti geologiya ftini (1959)

va M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutini

(1961) tugatgan. Qozogʻiston Yozuvchilar

uyushmasi boshqaruvi birinchi kotibi

(1983-yildan). "Kryilmisan insonga,

zamin!" (1961) dostoni birinchi fazogir

Yu.A. Gagarinta bagʻishlangan. "Quyoshli

tunlar" (1962), "Qutlug' tongotar" (1964), "Maymun yili" (1967), "Sopol kitob" (1969) she'riy kitoblari, "Oqdaryo ustida" (1970), "Butun baxt" (1975), "Az i YA" (1975) va boshqa she'riy, nasriy, esse kitoblari muallifi. Asarlarida qozoq xalqi hayoti, Sharq mavzusi, hozirgi yoshlar takdiri aks etgan. She'rlari falsafiyligi, ritmik izlanishlarga boyligi va she'riy birikmalarning murakkabligi 6n ajralib turadi. O'zbekistonga bir necha marta kelgan, o'zbek shoirlari bilan ijodiy aloqada. Ayrim asarlari o'zbek tilida nashr etilgan.



Lg.Arg'umoklar, T., 1976; Aylanayin, T., 1988; Az i Ya, Almaata, 1990.

*Ko'proq o'rganish Ushbu maqolada  
O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-  
2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.*

*Shaxsiyat haqidagi ushbu maqola  
chaladir. Siz uni boyitib, ([https://uz.wikiped](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=O%CA%BBljas_Sulaymonov&action=edit)  
[ia.org/w/index.php?title=O%CA%BBljas](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=O%CA%BBljas_Sulaymonov&action=edit)  
[Sulaymonov&action=edit](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=O%CA%BBljas_Sulaymonov&action=edit)). Vikipediyaga  
yordam berishingiz mumkin.*

```
"https://uz.wikipedia.org/w/index  
.php?  
title=O%CA%BBljas\_Sulaymonov&oldid=345  
4977" dan olindi
```

---

VIKIPEDIYA

Bu sahifa oxirgi marta 11-Dekabr 2022, 11:23 da tahrir qilingan. •

Matndan [CC BY-SA 3.0](#) litsenziyasi bo'yicha foydalanish mumkin (agar aksi ko'rsatilmagan bo'lsa).